



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK 618.3-09

AKADEMIK MOBILLIK SHAROITIDA TIBBIYOT OLIYGOHLARI
DASTURLARINING XALKAROLASHUVI VA XORIJIY TAJRIBALAR TAXLILI

Gulbahor Oybek qizi Yaxshiboyeva - p.f.f.d, (PhD) dot, “Xorijiy tillar” kafedrası, Andijon davlat tibbiyot instituti. yakshibovevagulbakhor@gmail.com (ORCID : 0000-0003-1022-2216)



Annotatsiya: So‘nggi yillarda globalizatsiya jarayonlari ta‘lim sohasida ham o‘z aksini topib, oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro integratsiyasi va hamkorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, tibbiyot sohasida akademik mobillik — talabalar va professor-o‘qituvchilarning turli mamlakatlardagi oliygohlarda malaka oshirish, ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish hamda pedagogik faoliyat yuritish imkoniyatlari — ta‘lim sifatini oshirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu munosabat bilan, tibbiyot oliygohlari o‘quv dasturlarining xalqarolashuvi jarayonlari va xorijiy tajribalar tahlili ayniqsa dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Task-based learning, simulyatsion treninglar, audio-video vositalar, Contextual Learning, Communicative Approach, Kompetentlik yondashuv.

Интернационализация учебных программ медицинских вузов в условиях академической мобильности и анализ зарубежного опыта

Гулбахор Ойбек кизи Яхшибаева – к.п.н. (PhD), доцент кафедры «Иностранные языки», Андижанский государственный медицинский институт. ORCID: 0000-0003-1022-2216

Аннотация: В последние годы процессы глобализации нашли отражение и в сфере образования, что вывело международную интеграцию и сотрудничество высших учебных заведений на новый уровень. Особенно в области медицины академическая мобильность — возможность студентов и преподавателей проходить повышение квалификации, участвовать в научных исследованиях и вести педагогическую деятельность в вузах разных стран — является важным фактором повышения качества образования и его адаптации к международным стандартам. В связи с этим процессы интернационализации учебных программ медицинских вузов и анализ зарубежного опыта представляют собой особо актуальную проблему.

Ключевые слова: Task-based learning, симуляционные тренинги, аудио-визуальные средства, Contextual Learning, Communicative Approach, компетентностный подход.

Internationalization of Medical University Curricula under the Conditions of Academic Mobility and Analysis of Foreign Experience

Gulbahor Oybek qizi Yakhshiboyeva, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Foreign Languages, Andijan State Medical Institute. ORCID: 0000-0003-1022-2216



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Abstract: In recent years, globalization processes have also influenced the field of education, bringing international integration and cooperation among higher education institutions to a new stage. Particularly in the field of medicine, academic mobility — providing opportunities for students and faculty members to undergo professional training, participate in research, and engage in teaching activities at universities abroad — serves as a crucial factor in improving the quality of education and aligning it with international standards. In this regard, the internationalization of medical university curricula and the analysis of foreign experiences are of particular relevance.

Keywords: Task-based learning, simulation training, audio-visual aids, Contextual Learning, Communicative Approach, competence-based approach.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021-yil 12-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6456-sonli Farmoni tibbiyot ta‘limini xalqarolashtirish va o‘quv dasturini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo‘lida ko‘plab muhim qadamlar qo‘yish orqali xizmat ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish, xalqaro standartlarga moslashtirish va tibbiy xodimlarning malaka oshirishga sabab bo‘ldi¹.

Akademik mobillik tibbiyot ta‘limida nafaqat individual talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida tajriba almashinuvi va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayon natijasida o‘quv dasturlarining tarkibi va mazmuni xalqaro standartlar bilan moslashadi, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtiriladi.

Tibbiyot sohasida o‘quv dasturlarini xalqarolashtirish jarayonida asosiy e‘tirof ilmiy-amaliy yo‘nalishlarning bir xilda rivojlanishi, ta‘lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va metodikalarning tatbiq etilishiga qaratiladi. Shu bilan birga, xalqaro akkreditatsiya talablariga javob beruvchi ta‘lim standartlari ishlab chiqilib, ularning milliy ta‘lim tizimiga integratsiyasi ta‘minlanadi.

Xorijiy tajribalar tahlilini o‘tkazadigan bo‘lsak, xalqaro miqyosda tibbiyot ta‘limi tizimlarini xalqarolashtirish bo‘yicha ko‘plab muvaffaqiyatli misollar mavjud. Masalan, Germaniyada tibbiyot ta‘limi institutlari akademik mobillikni rivojlantirish uchun qator dasturlarni ishlab chiqqan bo‘lib, ular nafaqat talabalar, balki professor-o‘qituvchilar almashinuvini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Rostok universiteti va Andijon davlat tibbiyot instituti o‘rtasidagi hamkorlik shunday muvaffaqiyatli misollardan biridir. Bundan tashqari 2022-yilda Andijon davlat tibbiyot instituti xorijiy universitetlar bilan akademik almashinuv bo‘yicha 15 ta memorandum imzoladi, bu esa talabalar va professor-o‘qituvchilar mobililigi 30% ga oshirdi.

AQSH va Buyuk Britaniya oliy ta‘lim muassasalari esa tibbiyot fakultetlarida ingliz tilida olib boriladigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqib, chet ellik talabalar uchun akademik mobillik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Garvard va Oksford universitetlarining tajribalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar xorijiy muassasalarda ilmiy-tadqiqot ishlari va klinik amaliyotlarni amalga oshirish orqali o‘z malakalarini sezilarli darajada oshiradi².

2020-yilgi UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 6 milliondan ortiq talabalar xorijda tahsil olmoqda, ularning 15-20 foizi tibbiyot yo‘nalishlarida tahsil oladi. Bu holat oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Janubiy Koreya va Singapur kabi Osiyo davlatlari esa o‘z tibbiyot ta‘limini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lida yuqori texnologiyalarni keng joriy etib, o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish va ko‘p tillilikni rivojlantirishga alohida e‘tirof bermoqda. Aynan akademik mobillik sharoitida tibbiyot oliygohlari dasturlarining xalqarolashuvi va xorijiy tajribalar tahlili O‘zbekiston

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6456-sonli Farmoni, 2021-yil 12-noyabr. lex.uz

2 Harvard Medical School & University of Oxford Medical Sciences Division. (2022). Global Clinical and Research Training Initiatives. Retrieved from <https://hms.harvard.edu> and <https://www.medsci.ox.ac.uk>



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

tibbiyot ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va tibbiyot sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash borasida juda muhim.

Janubiy Koreya va Singapur tibbiyot oliygohlarida zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonlariga keng joriy etish hamda ko'p tillilik dasturlarini rivojlantirish asosiy yo'nalish hisoblanadi. Masalan, Seoul National University tibbiyot fakulteti 2021-yilda raqamlashtirilgan o'quv resurslari va ingliz tilida olib boriladigan kurslar sonini 40% ga oshirgan.

N.B.Mirzoev: "Chet el universitetlarining tibbiyot sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish, ularning kuchli tomonlarini o'zlashtirish va o'z tibbiyot ta'limi tizimiga moslashtirish muhimdir" deb ta'kidlaydi. Bu jarayonda turli rivojlanish davlatlarning tibbiy ta'limi tajribalari bilan tanishib, o'quv dasturlarini takomillashtirish va jahon mehnat bozori talab darajasidagi mutaxassis yetishtirib chiqarishda akademik mobillik muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro almashinuv, talabalarining shaxsiy o'sishi, mutaxassislik bo'yicha jahon andozalari darajasida samarali ishlashga tayyor, malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish orqali imkoniyatlar yaratmoqda.

2019-yilning yakuniga kelib Respublikadagi ko'plab tibbiy ta'lim muassasalari akademik mobillik dasturlarini ishlab chiqishga faol qiziqish bildirish mobaynida tobora ko'proq xorijlik talabalarni yoki boshqa mintaqalardagi universitetlar vakillarini qabul qilishdi, shuningdek, yangi ta'lim sharoitlarini o'rganish va tushunib yetish maqsadida o'z talabalarini boshqa mamlakatlarga faol yuborishdi³. Ta'lim muassasalari tibbiy ilm-fan sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatishni o'rganishda akademik mobillikni targ'ib qildilar va global miqyosda tadqiqotlar olib bordilar, shuning natijasida ko'plab qo'shma ta'lim dasturlari loyihalarini ishlab chiqdilar.

Yu. E. Shabalin ta'kidlaganidek, "Akademik mobillik- o'zi XXI asr boshlarida ta'lim tizimiga qo'shma ta'lim dasturi ko'rinishida kirib keldi. Biroq, bu kontseptsiyaning konteksti asl mazmunini saqlab qoldi. Va bu atama Boloniya tizimini olib kirishning dastlabki bosqichlarida Respublika hududida Yevropa muhitini yaratish usuli sifatida ko'rilgan bo'lsa, bugunga kelib u Respublika oliy ta'limining raqobatdosh ustunligini oshirish usuli sifatida e'tirof etila boshlandi.⁴" Shabalin, shuningdek, XXI asr o'rtalarida talabalar almashinuvi mahalliy talabalar uchun Yevropa universitetlarida o'qishni davom ettirish imkoniyatini yaratganini ta'kidladi.

Ushbu fikrga qarama-qarshi L.V.Znovenko birlamchi fikrda akademik harakatchanlikni o'quv jarayonidan kelib chiqadigan shaxsiy o'sishning bir qismi deb hisoblagan bo'lsa keyinchalik tadqiqotchi bu atamani ta'lim jarayonini tashkil etish shakllaridan biri sifatida belgilaydi⁵.

Yuqoridagi fikrlar nomutanosibligini hisobga olib L.A.Keleman shaxsiy, ta'lim, lingvistik, kasbiy va tibbiy jihatlardan akademik mobillik dasturlari uchun o'quv maqsadlarining maxsus tipologiyasini taklif qilish lozimligini aytib o'tdi⁶.

Tibbiyot sohasida akademik mobillik sharoitida dasturlarni xalqarolashtirishdagi xorijiy tajribalarni tahlil qilish o'zbek tibbiyot ta'lim tizimini rivojlantirish uchun juda ahamiyatlidir.

Xorijiy universitetlarning akademik mobillik va dasturlarni xalqarolashtirishdagi tajribasi O'zbekiston tibbiyot ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va malakali mutaxassislar tayyorlash uchun muhim manba hisoblanadi. Bu tajribalarni o'rganib, O'zbekiston tibbiyot ta'limi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, talabalar va pedagoglarning xalqaro miqyosda harakatlanishi va tibbiyot sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirish mumkin.

Shu kunga qadar akademik mobillik sharoitida tibbiyot oliygohlari dasturlarini xalqarolashtirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi va Yevropa, Buyuk Britaniya, Avstraliya va

3 Karimov, N. (2020). Tibbiy ta'limda akademik mobillik: O'zbekiston tajribasi. Tibbiyot va Ta'lim, 4(2), 45–50.

4 Shabalin, Yu.E. (2018). Akademicheskaya mobil'nost': opyt i perspektivy razvitiya v kontekste Bolonskogo protsessa. Vysshee obrazovanie v Rossii, №1, 34–39.

5 Znovenko, L.V. (2017). Akademicheskaya mobil'nost': lichnostnaya i institucional'naya perspektivy. Vysshee obrazovanie segodnya, №6, 25–30.

6 Keleman, L.A. (2016). Typology of Educational Goals in Academic Mobility Programs. Journal of International Education and Practice, 5(3), 122–130.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI

JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Amerika qo'shma Shtatlarining tajribalariga suyanildi. Ushbu jarayonning O'zbekiston tibbiyoti uchun ahamiyatli tomonlarini ko'rib chiqsak:

Dastlabki holatda biz uchun to'g'ridan-to'g'ri ta'lim tizimimizga yaqin bo'lgan Yevropa Ittifoqi va Boloniya jarayoni olib kirish qulay hisoblandi va Boloniya jarayoni doirasida Yevropa universitetlari o'rtasida akademik mobillik dasturlari, kreditlarni o'tkazish tizimi va o'quv dasturlarini birlashtirishga ahamiyat berildi. Bu jarayonda tibbiyot oliy ta'lim yo'nalishlari uchun yagona standartlashtirilgan o'quv dasturlar va zamon talab darajasidagi baholash tizimini yaratildi.

Shu o'rinda Yevropa Ittifoqi va Boloniya jarayonini to'liq ta'lim tizimiga joriylashtirish O'zbekiston uchun ahamiyati nimada degan savol paydo bo'ladi. Boloniya jarayonining tajribasini o'rganish va uni O'zbekiston tibbiyot ta'limi tizimiga moslashtirish, talabalar va pedagoglarning xalqaro miqyosda ta'lim darajasiga ega bo'lishi va modul-kredit tizimini joriy qilish imkoniyatini beradi. Bunga misol tariqasida 2010-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Erasmus+ loyihasini olish mumkin. 2014-yilga kelib talabalar almashinuvi dasturining ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qish davomida xalqaro tajribaga ega bo'lgan ushbu loyiha bitiruvchilari jahon mehnat bozorida yuqori natijalarga erishadilar. Shu sababli ham tibbiyot sohasida tahsil olish davomida akademik mobillik doirasida o'qigan talabalar jahon mehnat bozorida ishsizlik darajasi 23 foizga pastlashadi⁷.

Amerika qo'shma shtatlar tibbiy ta'lim tizimidan namuna olish bo'lsa ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan ta'limni tibbiyot sohasiga olib keladi. Sababi, Qo'shma Shtatlardagi tibbiyot universitetlari ilmiy tadqiqotlarga katta e'tirof beradilar va talabalarni erta bosqichdan boshlab ushbu tadqiqotlar jarayonlariga jalb qiladilar. Bu yo'nalishda ketish nafaqat ilmiy tadqiqotlarni rivojlantiradi shu bilan birga klinik amaliyotni ham yuqori bosqichga olib chiqadi.

Agar bu yo'nalishda Buyuk Britaniya tajribasini amalda qo'llasak universitetlari ko'plab xalqaro hamkorlik dasturlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar sababi bu yo'nalishda tajribalari uzoq tarixga borib taqaladi va talabalarni xalqaro miqyosda tan olinuvchi diplomlar bilan ta'minlashga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida tibbiyot yo'nalishida zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish bo'yicha namuna bo'la oladigan davlat Avstraliya tajribasini bizda qo'llash ham tibbiyot ta'lim ham ilmiy tadqiqotlarda qo'l kelishi mumkin. Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda tibbiyot yo'nalishiga ko'plab xorijiy talabalarni ham jalb qilish avj olgan bir paytda Avstraliya tibbiy ta'lim tizimida multikulturalizmga e'tirof berishi va talabalarga turli madaniyatlar bilan tanishish imkonini yaratib berishi borasida ham namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Globalizatsiya jarayonlari ta'lim sohasiga ham keng ko'lamli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, Avstraliya tibbiyot ta'limi tizimining ilg'or tajribasini o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, tibbiyot ta'limini modernizatsiya qilish hamda talabalarni global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari turli mamlakatlarning yetakchi tibbiyot yo'nalishlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirmoqda. Jumladan, Andijon davlat tibbiyot instituti Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, AQSH, Rossiya, Turkiya, Hindiston va Pokiston kabi davlatlar bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirib, ularning ta'lim dasturlaridan o'zlashtirish yo'li bilan xalqaro tajribalarni mamlakatimiz ta'lim tizimiga olib kelmoqda.

O'zbekiston tibbiyot oliy ta'limini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida tibbiyot fanlari doktorlari A.Qosimov, R.Karimov, Sh.Shokirov kabi olimlarning hissalar katta ahamiyatga ega.

7 Jovanović, D. & Živković, M. (2016). Effects of International Student Mobility on Employability: Erasmus Impact Study Findings. *Journal of Mobility and Education*, 4(2), 67–75.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025


14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Ularning ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy tavsiyalari milliy tibbiy ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda⁸.

Boloniya jarayoni doirasida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, Sorbonna deklaratsiyasining imzolanishi Yevropa tibbiyot ta'limining isloh qilinishiga va yangi davr boshlanishiga olib keldi. Bu jarayon O'zbekistonda tibbiyot yo'nalishidagi malaka standartlari va normativ hujjatlarni xalqaro mezonlar bilan taqqoslash imkonini berdi hamda xalqaro integratsiyani kuchaytirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jovanović, D. & Živković, M. (2016). Effects of International Student Mobility on Employability: Erasmus Impact Study Findings. *Journal of Mobility and Education*, 4(2), 67–75.
2. Yahshiboyeva Gulbakhor Oybek kizi Парамедицинада инглиз тили амалий машғулотларида тиббиётга оид терминларни ўргатиш методикаси, XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASISалми Дж. Создание университетов мирового класса : пер. с англ. М. : Весь Мир, 2009. 132 с.
3. Kopaysinovna, K. S. (2022). Age-related Characteristics and Teacher's Skills of Introducing Artistic Works to Preschool Children. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
4. Qosimov, A., Karimov, R., & Shokirov, Sh. (2020). Tibbiy ta'limda xalqaro standartlar: muammo va yechimlar. *O'zbekiston Tibbiyot Jurnal*, 3(2), 25–30.



8 Qosimov, A., Karimov, R., & Shokirov, Sh. (2020). Tibbiy ta'limda xalqaro standartlar: muammo va yechimlar. *O'zbekiston Tibbiyot Jurnal*, 3(2), 25–30.